# ABZASGA OID TURLI MULOHAZALAR HAQIDA

**Umurzakova Umidaxon Ahmadjon qizi**
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: **umidaxonumirzaqova821@gmail.com**
ORCID ID 0009-0004-6806-1528

***Annotatsiya***
*Ushbu maqolada abzas haqida umumiy ma’lumotlar beriladi. Abzasga oid turli davrdagi rus va o‘zbek tilshunoslarining fikr va mulohazalari ko‘rsatiladi. Abzatsning matndagi o‘rni tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *abzas, badiiy matn, sintaktik birlik, stilistik usul, pragmatik maqsad.*

## KIRISH

Tilshunoslikda matnni o‘rganish boshlanganidan buyon muammoli bo‘lib kelayotgan abzas masalasi hali hamon to‘liq tadqiq etilmagan. Abzas ( nem. Absatz < absetzen – yangi satrdan boshlash>) 1. Matn( tekst)ning dastlabki qatorini biroz o‘rin ( uch harf o‘rni) qoldirib boshlash; xatboshi, satrboshi.

2. Matnning bir xatboshidan keyingi xatboshigacha bo‘lgan qismi[1]. Abzas haqida juda ko‘p tilshunoslar fikr bildirgan bo‘lib, Yevropa tilshunosligida uning matndagi maqomi, vazifasi haqidagi tadqiqotlar bir necha yuzlardan oshadi. Ko‘pincha uni supersintaktik butunlik bilan qiyoslaydilar. Masalan, O.I.Moskalskaya ularni solishtirib, abzasning kompozitsion hodisa ekanligini, supersintaktik butunlik esa sintaktik hodisa hisoblanishini aytadi[2]. I.V.Arnold esa yozma nutqning bir xatboshidan ikkinchi xatboshigacha qamrab olingan, murakkab sintaktik butunlik bo‘lgan, shuningdek, adabiy matnning nisbiy tugallangan qismini tashkil etgan bo‘lak abzas deyilishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u abzas nazariyasi ibtidosi A.M. Peshkovskiy ishlariga borib taqalishini asoslab, “Abzas gapga nisbatan yuqori darajadagi sintaktik-intonatsion butunlikdir”, - degan fikr bildiradi[3]. I.R.Galperin esa abzas tinish belgilari kabi matndagi emotsional jihatlarni alohida ta’kidlab ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan kompozitsion-grafik usul ekanligini o‘z asarida ko‘rsatadi[4]. M.L.Loseva abzas va supersintaktik butunlik alohida-alohida tekshiruv obyektlari ekanligini, abzas maxsus semantik va sintaktik birlik sifatida mavjud emasligini asoslaydi[5]. N.A. Levkovskayaning fikricha, abzas ilmiy matnda struktur, semantik va kommunikativ butunlik maqomida bo‘lsa-da, badiiy matnda emfatik vazifa bajaruvchi vosita sifatida ishtirok etadi[6]. E.A.Referovskayaning ilmiy kuzatishlariga ko‘ra abzas muallifning individual

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-jild. Toshkent, 2023.40-bet.
[2] Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981. С .14,30,84.
[3] Арнолд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л.: Просвещение,1973. С. 244.
[4] Гальперин И. Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.,1958. - С. 226-230.
[5] Лосева Л. М. Как строится текста. – М.: 1980. -С. 85.
[6] Левковская И.А. В чем различие между сверхфразовым единством и абзацем // Филологические науки, 1980, N1. -С.75-78.

manerasiga muvofiq tarzda mavzuning mazmuniy rivojiga qaratilgan[7]. O‘zbek tilshunosligida ham abzasga oid bir necha fikrlar mavjud. Masalan, A.Mamajonov matnning abzaslarga bo‘linishi tasodifiy hol bo‘lmasligini, bu puxta o‘ylangan va muallif tomonidan ongli ravishda qo‘llaniluvchi stilistik usul ekanligini ta’kidlaydi[8]. Ilmiy matnlarni o‘rgangan M.Hakimov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida abzasni ilmiy matnning asosiy birligi sifatida baholaydi[9]. M.Yo‘ldoshev badiiy matn lingvopoetikasiga oid tadqiqotida matn birliklari haqida fikr bildirar ekan, abzasni matn birligi sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq emasligini, yozma matndagi o‘ziga xos kompozitsion-stilistik usul tarzida tadqiq etish lozimligini ta’kidlaydi[10]. A.Mamajonov va M. Abdupattoyevlarning “O‘zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti” deb nomlangan monografiyalarida esa : “Demak, ma’lum bir fikrni ajratib ko‘rsatish, uni bo‘rttirish va ta’kidlash lozim bo‘lganda, matnlar abzaslarga ajratib boriladi va shu yo‘l bilan ko‘zda tutilgan maqsadga erishiladi”, - deb xulosa beriladi[11].

Yuqoridagi tilshunoslarning fikrlari asosida xulosa qilib aytganda, badiiy matnlarda abzas sintaktik birlik emas, balki stilistik usul, ya’ni muallif ma’lum bir maqsad asosida matnni abzaslarga ajratadi, bunda har bir abzasda muallif ajratib ko‘rsatmoqchi, ta’kidlamoqchi, qandaydir badiiy niyat yuklamoqchi bo‘lgan fikr bayon etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-jild. Toshkent, 2023.
2. Mamajonov A., Abdupattoyev M. O‘zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. – Farg‘ona, 2021.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Т.: Фан, 2008.
4. Xolova M. Badiiy matnning lingvistik tahlili. – Termiz, 2019.
5. Asadov T. Matn tilshunosligi. – Buxoro: Durdona, 2023.

[7] Реферовская Е. А. Сверхфразовой единство и абзац // Теория языка Методы его исследования и преподавания. - Л.: Наука, 1981. -С.225-228.
[8] Мамажонов А. Абзац ва унинг лингвистик белгилари // Олий ва ўрта махсус таълим юртларида ўзбек тилининг ўқитилишига бағишланган 3- республика анжумани материаллари. Урганч, 1992.
[9] Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. – НДА. Тошкент, 1993. - Б.25.
[10] Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Т.: Фан -2008. - Б.77.
[11] Mamajonov A., Abdupattoyev M. O‘zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. – Farg‘ona, 2021. - 80-bet.